



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



## RISHTON TUMANI TARIXI

**Quldasheva Hilola Husniddinjon qizi**  
**Rustambekova SHohida Oybekjon qizi**  
*Andijan Davlat Pedagogika Instituti*  
*Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti*  
*Tarix yo'nalishi 302-guruh talabalari*

**ANATATSIYA;** *Ushbu maqolada Rishton tumani tarixi, uning rivojlanishi, qayerda joylashganligi, chegaradosh hududlari, rishton tumanini aholisi, ob-havosi, maydoni, foydali qazilmalari, rishton tumanidagi o'simliklar, hayvonlar, kulolchilik madaniyati haqida ma'lumot berilgan.*

**KALIT SOZLAR;** *Rishton tumani, roshidon, kulolchilik, rishton tumani tarixi, aholisi, maydoni, foydali qazilmalari.*

Rishton tumani — Farg'ona viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. 1959-yil 7-martda So'x tumani bilan birlashtirilgan. 1990-yil 27-fevralda So'x tumani ajralib chiqqan. Shim.dan Bag'dod, jan.sharqdan Oltiariq, g'arbdan O'zbekiston va Uchko'prik tumanlari, janubdan Qirg'iziston bilan chegaradosh. Maydoni 0,42,1 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra 212,2 ming kishi[4]. Tumanda 1 ta shahar (Rishton) va bir nechta qishloq fuqarolari yig'ini (Chuburg'on, Uyrat, Pandigon, Tegirmonboshi, Navbahor, Beshkapa, Buzrukxo'ja Usmonxo'jayev, Bo'ston, Yoyilma, Zoxidon, Mehnatobod, Oqoltin, Oqyer, Rishton, To'da, Dutir, Qayrag'och) bor. Markazi — Rishton shahri. Tuman hududi Markaziy Farg'ona cho'lining jan.da, So'x daryosi va Katta Farg'ona kanali bo'yida joylashgan. Hududi, asosan, tekislikdan iborat. Foydali qazilmalardan neft, gaz, soz tuproq, shag'al bor. Iqlimi keskin kontinental. Yanvarning o'rtacha temperaturasi —6.7°, eng past temperatura —27°, iyulning o'rtacha temperaturasi 23.6°, eng yuqori temperatura 42°. Yiliga 180 mm yog'in yog'adi. Xo'jaliklar va aholi yerlari So'x daryosi va Usmon Yusupov nomli Katta Farg'ona, Katta Andijon kanallaridan sug'oriladi. Tuproqlari qo'ng'ir bo'z tuproq va o'tloqi tuproqlardan iborat, ayrim joylarda sho'rtuproq uchraydi. O'simliklardan sho'ra, shuvoq, yantoq, miya, oq bosh, yulg'un, qiyoy va boshqa o'sadi. Yovvoyi hayvonlardan bo'ri, tulki, quyon, yumronqoziq; parrandalardan kaklik, bedana, tustovuq, zog'cha, qarg'a, to'rg'ay, sassiqpopishak, qaldirg'och; sudraluvchilardan o'q ilon, chipor ilon, kaltakesak; kemiruvchilardan kalamush va boshqa uchraydi.

Aholisi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, tojik, qirg'iz, rus, tatar, koreys va boshqa millat vakillaridan iborat. Aholin 210.3 ming kishi. Rishton Farg'ona vodiysi va O'rta Osiyoning eng qadimiy aholi punktlari va madaniy markazlaridan biri hisoblanadi. Bu hududda sug'oriladigan dehqonchilik ishlari miloddan avvalgi V asrda vujudga kelgan. Shunga asoslanib, miloddan avvalgi III—II asrlarda Buyuk ipak yo'lining yo'nalishlaridan biri shu yerdan o'tgan deyish mumkin. Manbalarda aholi punkti sifatida IV asrdan, Reshton nomi





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



esa IX asrdan ma'lum bo'lgan. Uzoq tarix davomida shahar bir necha bor sel, zilzila va yot bosqinchilar tomonidan vayron qilingan. Biroq aholi o'zining asl an'anaviy turmush tarzini va xalq hunarmandchiligini saqlab qolgan. VIII asrgacha shahar nomi qayta-qayta o'zgartirilgan va shuning uchun uning kelib chiqish tarixining bir nechta versiyalari mavjud. Rishton nomi „Roshidan“ (ya'ni, dono, oqilona, to'g'ri yo'ldan yuruvchi) so'zidan kelib chiqqan. Donishmandlarni, odatda, Roshidlar deb atashgan, tuman nomi ham aynan shunga ishora qiladi. Rivoyatlarga ko'ra, Rishton tumani Farg'ona vodiysidagi tepalikda qal'a yoki istehkom shaklida paydo bo'lgan birinchi aholi punkti yoki shaharlaridan biri hisoblanadi. O'rta osiyolik, o'zbek va sovet sayyohi, yozuvchi, poliglot-tarjimon, tarixchi va jadidchi olim Is'hoqxon Ibrat (asl ismi — Is'hoqxon To'ra Junaydullo Xo'ja o'g'li) o'zining 1916-yildagi „Tarixi Farg'ona“ tarixiy kitobida shaharning tashkil topgan vaqti va nomini fors mamlakatidan kelgan ko'chmanchi xalqlar bilan bog'lab, 833-yil, ya'ni IX asrga tashkil topgan deb yozadi.

Rishton XVIII asrda yirik harbiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan qal'a hisoblangan. Bu hududda Xitoy, Hindiston, keyinchalik rus savdogarlari to'xtab o'tganlar. Rishtonda qadimdan kulolchilik san'ati rivoj topgan bo'lib, mashhur Rishton kulollarining mahsulotlari Sharq bozorlarida juda haridorgir bo'lgan. Hozirgi kunda ham Rishton ustalari tomonidan ishlangan sopol lagan, shokosa, ko'zalar va sopolan ishlangan badiiy buyumlar respublikadan tashqarida juda ham mashhur hisoblanadi. Rishton tumanida mashhur fiqhshunos Burhoniddin ar-Rishtoniy al-Marg'inoniy tavallud topgan (shahardagi „Chinigaron“ qabristonida uning ramziy maqbarasi barpo etilgan). Urushlar va tabiiy ofatlar natijasida aholi punktlarining holati bir necha bor o'zgargan. Rishton o'rta asrlarda va XX asr boshlarida shaharga, keyinchalik esa qishloqqa aylantirilgan. 1923—1929-yillarda Sovet hokimiyatining o'rnatilishi bilan Rossiya imperiyasida mavjud bo'lgan Rossiya grafliklari va volostlar o'rniga okruglar tashkil etiladi. 1926-yilgacha Rishton cherkovi ham ushbu hududda mavjud bo'lgan, ammo keyinchalik cherkov faoliyati to'xtatilgan. O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 1926-yil 29-sentyabrdagi 5-sonli farmoni bilan O'zbekiston Respublikasining Farg'ona viloyati tarkibida, ya'ni ma'muriy markazi Yuqori Rishton qishlog'i bo'lgan Rishton viloyati tashkil etiladi. 1934-yilda Sovet partiyasi rahbari Valerian Kuybishev sharafiga qishloq nomi Rishtondan Kuybishevoga o'zgartiriladi. 1958-yil 8-mayda shahar tipidagi aholi punkti maqomini oladi. O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1977-yil 24-noyabrdagi farmoniga ko'ra shahar maqomi berilishi munosabati bilan Kuybishevo qishlog'idan yana qayta sobiq Rishton nomiga qaytariladi.

Farg'ona vodiysidagi Rishton shahri mohir kulollari va betakror qizil loyi bilan mashhur. Afsonaga ko'ra, sopolni ishlab chiqarish bu yerda ming yil oldin paydo bo'lgan ekan. Rishton kulolchiligi juda xilma-xil va go'zaldir. Ko'zalar va guldonlarning latif shakllari, mayin chiziqdari, gul naqshlarining xilma-xilligi, havorang bo'yoqning barcha tuslarida namoyon bo'ladigan ranglarning uyg'unligi — bular benihoyat go'zal idishlarining o'ziga xos xususiyatlaridir. O'rta asrlardayoq Rishton Buyuk Ipak yo'lidagi asosiy to'xtash joyi hamda savdo-sotiq markazlaridan bo'lgan. O'tmishda shakllangan kulolchilik maktabi





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



bugun yanada rivojlanib xalqaro kulolchilik markazlari tashkil topdi. Soha yanada sayqallandi. XIX asrning 70-yillarida usta Abdulla kulol boshchiligidagi Rishton hunarmandlari Qo'qondagi Said Muhammad Xudoyorxonning saroyi – O'rdani bezash ishlarida faol qatnashgan. Ularning chinnipazlik va koshinpazlik san'ati Qo'qon hukmdori tomonidan yuqori baholangan. 1918 yili Rishtonda dastlabki kulolchilik arteli tashkil qilindi. 1927 yilda bu artelga "Yangi hayot" nomi berildi. 1960 yilda artel Rishton sopol ishlab chiqarish zavodi tarkibiga kiritildi. Qariyb 800 yillik tarixga ega kulolchilik an'analarning bebaho meros sifatida ohori to'kilmay bugungi kunga yetib kelishida Rishtonning asl usta kulollari mehnati beqiyos. Rishton buyumlari, miniatyuralari san'at shaydolari orasida katta shuhrat qozongan. Hech bir hududning kulolchilik namunalariga o'xshamaydigan bu san'at asarlari AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Polsha, Shvetsiya, Iroq, Eron, Misr kabi mamlakatlarda bo'lib o'tgan xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda namoyish qilinishi va e'tirofga sazovor bo'lishi Rishton kulollarining iste'dodidan dalolat beradi. Rishtonlik kulollar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar o'zining dizayni, tabiiy rangi va qalampir nusxali naqshlarga boyligi bilan ajralib turadi. Buxoro, Samarqand, Xorazm kabi shaharlardagi do'konlarda savdoga qo'yilgan Rishton kulolchilik buyumlari va miniatyuralari chet ellik sayyohlar qiziqishiga sabab bo'lmoqda, bu san'at namunalariga bo'lgan talab kundan-kun oshmoqda. Shuning uchun ham Rishtondagi qaysi bir kulolning ustaxonasida bo'lmang, barchasi qo'li qo'lga tegmay ishlayotganini ko'rasiz. So'nggi yillarda Rishton kulolchilik maktabi yanada rivojlandi. Hozirgi kunda Rishtonda yigiruv to'quv fabrikasi, badiiy kulolchilik buyumlari zavodi va yuzlab kichik xususiy kulolchilik sexlari, 3 mingdan ziyod yakka tartibdagi hunarmandlar, O'zbekiston Badiiy akademiyasi tasarrufida „Usto Abdullo“ korxonasi faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, hududda dehqon va buyum bozorlari ham faoliyat ko'rsatadi. Shaharda 6 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi, 2 ta kasb-hunar kolleji, 1 ta litsey mavjud. Tuman hokimiyati binosi, davlat va ma'muriy tashkilotlar, 2 ta madaniyat uyi, 1 ta markaziy stadion, 1 ta markaziy kasalxona, 2 ta poliklinika va boshqa tibbiy muassasalar, bir qancha savdo va madaniy xizmat ko'rsatish shoxobchalari ham hozirgi kunda aholiga xizmat ko'rsatadi. Usta Ibrohimjon Komilov, Bobojon Nishonov, Hakimjon Sattorov, Rustamjon Usmonov, Alisher Nazirov, Sharofiddin Yusupov, Tohirjon Haydarov, Ravshan Tojiddinov, Shokir Ahmadjonov, Saidjon Ahmedov, Bunyod Yunusov singari mashhur kulollar yaratgan mahsulotlar barchani hayratga solib kelmoqda. Rishtonlik Rustam Usmonov – kulollar sulolasining munosib davomchisi. U rishtonlik ustalar ichida professional san'at ta'limini olgan yagona ustadir. R.Usmonov 1980 yilda Toshkent teatr va rassomchilik institutini tamomlagan. Rishtonning eng yaxshi ustalari Hakimjon Sattorov va Ibrohim Komilovdan hunar sirlarini o'rgangan. U naqsh chizish san'atini mukammal egallagan, sir berishning turli texnologiyalarini juda yaxshi biladi, qadimgi ustalar merosini, arxeologik ekspeditsiyalar materiallarini tadqiq etib, yo'qolib ketgan naqshlarni qayta tiklash bilan shug'ullanadi. Uning ijodida xalq an'analari va yuqori darajadagi professionalizm uyg'unlashib ketgan. Usta nozik did egasi – u yasagan buyumlar nafisligi va mumtoz shakldagi tugallangan kompozitsiyasi bilan ajralib turadi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Xulosa qilib aytganda, Rishtonning tashkil topishi va rivojlanishi tarixidan kelib chiqqan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, shaharning mahalliy aholisi Farg'ona vodiysining tub aholisi bo'lib, qadimdan bu yerda o'troq aholi yashab kelgan saklar, farg'onaliklar va so'g'dlar avlodlari bo'lishgan. XI asr oxirida Rishton sel tufayli deyarli butunlay vayron bo'lgan va shaharni tiklash jarayonida tabiiy ravishda yangi mahallalar paydo bo'lgan. XII asrdan 1939-yilgacha shahar ikki qismdan iborat bo'lib, eski Qalay-Poyon (Quyil qal'a) va yangi Qal'ay-Bolo (Yuqori qal'a) bo'lgan. Ikki qal'aning aholisi Rishtonning yagona aholisini tashkil qilgan. Rishton aholisi soni bo'yicha Farg'ona viloyatida Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon va Quvadan keyin beshinchi o'rinda turgan. Shahar 20 kvartalga (mahalla) bo'lingan bo'lib, 2017-yil ma'lumotlariga ko'ra, bu yerda 50,2 ming kishi istiqomat qilgan. Shahar aholisining etnik tarkibi xilma-xil bo'lib, 20 dan ortiq millat vakillarini o'z ichiga olgan. Aholining asosiy qismini tojiklar, o'zbeklar, ruslar, tatarlar, qirg'izlar va boshqa millat vakillari tashkil etgan. Yangi asr boshidan buyon sodir bo'lgan tarixiy voqealar va mavjud yozma manbalar, arxeologik va ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, rasmiy statistika ma'lumotlari tahlil qilinib, qadimgi Rishtonda eramizning boshidan buyon yashovchilar soni taxminan hisoblab chiqilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rishton tumani hokimligining rasmiy veb sayti., „Rishton tumaning qisqacha tarixi“ (16- aprel 2022 - yil)
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent 2000-yil.

